

Ma'rufjon Raximov

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islomshunoslik yo'naliishi, 2-bosqich talabasi, Email: marufjon19941005@gmail.com Tell: +998937740550

Anotatsiya: *Ushbu maqolada siz tajvid ilmining vujudga kelish tarixi va sabablari, tajvid ilmining asoschilari hamda bu ilming rivojlanishida xizmat qilgan musulmon olimlari, musulmonlar jamiyatida tajvid ilmining o'rni, tajvid ilmi borasida yozilgan mo'tabar asarlar, shuningdek, bugungi kunda o'zbek tilida tajvid ilmi borasida nashr etilgan kitoblar haqida ma'lumot olishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Tajvid, Farishta, Jabroil alayhissalom, Mashxur sahobalar, Tobeinlar, Amaliy tajvid, Nazariy tajvid, Talaqqiy, Qur'on tilovati, Abul Asvad Ad-Dualiyy, Halil ibn Ahmad Al-Farohidiyy*

Tajvid ilmining vujudga kelishi rosululloh (alayhissalom) bilan bevosita bog'liqdir. Alloh taolo Qur'oni Karimni yigirma uch yil mobaynida rosulullohga (alayhissalom) bo'lib-bo'lib nozil qilishni iroda etdi. Albatta, buning ilohiy hikmati, sabablari bor edi. Mana shu yigirma uch yil davomida farishta Jabroil (alayhissalom) vahiy orqali payg'ambarimizning (alayhissalom) qalblariga Qur'on oyatlarini olib tushib turdi. Farishta Jabroil (alayhissalom) ketganidan so'ng rosululloh (alayhissalom) Qur'on oyatlarini eslab qolgan bo'lardilar. Keyin, o'sha zaxoti yonlaridagi vahiy kotiblariga aytib turardilar, ular esa rosulullohdan (alayhissalom) eshitganlarini hurmo daraxti po'stloqlari, tuya va qo'yning kurak suyaklari, yapaloq toshlar kabi narsalarga yozib olardilar. Vahiy kotiblari rosulullohdan (alayhissalom) eshitib, yozganlarini u zotga qaytarib o'qib berardilar. Shunda, rosululloh alayhissalom ularning o'qib bergenlarini eshitardilar, to'g'ri bo'lsa tasdiqlardilar, xato bo'lsa tuzatardilar. Shuningdek, o'z navbatida rosululloh (alayhissalom) Qur'on oyatlarini o'rgangan saxobalar ham boshqa saxobalarga aynan yuqoridagi uslubda yetkazganlar. Keyinchalik saxobalar tobeinlarga, tobeinlar ham o'zlaridan keyingi avlodga huddi shu yo'l bilan Qur'oni Karimni o'rgatardilar. Bu holat bizgacha davom etib kelmoqda. Shu tariqa ilk bor Qur'oni o'rgatish borasida amaliy tajvid ta'limi yuzaga keldi.

E'tibor qilinsa, bu jarayonning asosiy ikki jihat mavjud. Bular "og'zaki nutq qilish" va "eshitish" kabi fe'llardir. Ya'ni, ustoz shogirdiga o'qib (og'izda nutq qilib) beradi, shogird eshitadi. O'z navbatida shogird ham ustozidan eshitib, yodlaganini ustoziga qaytarib o'qib beradi. Ustoz shogirdini eshitib, Qur'oni to'g'ri o'qigani va to'g'ri yodlaganini tekshirib beradi. To'g'ri bo'lsa tasdiqlaydi, xato bo'lsa tuzatadi. Qur'oni o'rganishlikda ilk asos bo'lgan uslub, aynan mana shu, ustoz huzurida eshitib, yodlash uslubi edi. Tajvid ilmida bu jarayonni "talaqqiy", bunday ta'lim uslubini esa "amaliy tajvid" deb ataladi.

Qur'oni rosululloh alayhissalomdan talaqqiy yo'li ila olib, boshqa sahobalarga va o'zlaridan keyingi avlod musulmonlarga o'rgatgan qori sahobalarning mashxurlari

Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Ubay ibn Ka'b, Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Mas'ud, Abu Dardo va Abu Muso Ash'ariylar (Alloh u zotlardan rozi bo'lsin) edilar.

Bu o'rinda qilinadigan mulohaza, tajvid ilmi ikki qismidan iborat ekanligidir. Ular: Amaliy tajvid hamda Nazariy tajvid ilmlaridir. Yuqorida Amaliy tajvid haqida tushuncha berildi, kelgusi satrlarda Nazariy tajvid haqida so'z boradi.

Tajvid ilmining ikkinchi qismi Nazariy tajviddir. Nazariy tajvid rosululloh (alayhissalom) vafotlaridan keyin saxobalar va tobeinlar davridan vujudga kela boshladi. Nazariy tajvid ilmining yuzaga kelishiga vaqt o'tishi bilan arab bo'limgan musulmonlarning Qur'oni Karimni to'g'ri o'qishlarini tartibga solish va musulmonlar orasida Qur'on o'qishlikda yuzaga kelayotgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish zarurati, Qur'on tilovatidagi turli xillik sabab, musulmonlar orasida ixtilof va tushunmovchiliklarni yuzaga kelishi, Qur'on o'rganuvchilar uchun ta'lim jarayonining oson va yengil uslublariga bo'lgan ehtiyoj kabi o'sha davrda o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalar sabab bo'ldi. Qiroat ulamolari tomonidan mutavotir (yolg'onga yo'yib bo'lmaydigan darajada ishonchli) sanadga suyangan rivoyat asosida qoidalar ishlab chiqildi. Ana o'sha, rivoyatga suyangan, tushunish oson bo'lgan, qoidalarni o'zlashtirish bilan arab tilini bilmaydigan musulmonlar Qur'oni to'g'ri o'qiy oladigan bo'ldilar. Demak, Nazariy tajvid ilmi borasida xulosa qilib aytishimiz mumkinki, arab tilidan xabari bo'limgan musulmonlar Nazariy tajvid qoidalarni o'rganib, Qur'on aslida qanday nozil qilingan bo'lsa, ana o'shanday, bexato o'qish darajasiga oson yetishadilar.

Nazariy tajvid ilmi asoschisi sifatida, ko'pincha ikki buyuk olim tilga olinadi: birlari - Abul Asvat Ad-Dualiy, ikkinchilari - Halil ibn Ahmad Al-Farohidiy (rohimahumalloh).

Tajvid ilmida amaliy va nazariy qismlar bo'lib, avval amaliy tajvid yuzaga kelgan. Keyinchalik bir qancha sabablar taqozosiga ko'ra Nazariy tajvid ilmi shakllanib, rivojlanib kelgan.

Hazrati Usmon ibn Affon (roziyallohu anhu) davrida jamlangan Mus'hafda harflarni bir-biridan farqlaydigan alomatlar va harflarning harakati ham bo'limgan, biroq, saxobalar arab bo'lganliklari va arab tilini yaxshi bilganliklari uchun ular mus'hafdag'i oyatlarni to'g'ri o'qiy olganlar. Keyinchalik, Ajamlar, ya'ni arab bo'limgan musulmonlar bu masalada qiyinchilikka uchraganlari sabab harflarni bir-biridan farqlaydigan alomatlarga va harflarning harakatini ifoda etadigan harakatlarga ehtiyoj yuzaga keldi. Nasr ibn Osim ismli olim zot harflarni farqlash uchun alomatlarni kashf qildilar. Hazrati Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) takliflari bilan Abul Asvat Ad-Duvaliy ismli tobein (rohmatullohi alayhi) harflarning harakatlarini bildirib turuvchi belgilarni qo'yib chiqdilar. Oradan ma'lum vaqtlar o'tgach, endi musulmonlar Qur'oni mus'hafga qarab o'qishliklarida emas, balki uni talaffuz etishlarida xatolar kuzatila boshlandi. Bu vaqtga kelib o'z davrida Sarf va Nahv hamda Balog'at ilmlarida peshqadamlardan bo'lgan Halil ibn Ahmad al-Farohidiy har bir harf tananing qaysi a'zosida paydo bo'lyapti, uning talaffuz etilish kayfiyyati qanday va shu kabi bir nechta savollarni o'zlariga berib, uning javobini kitobat holiga keltirdilar. Shu tariqa tajvid

ilmida “Harflarning maxrajlari” va “Harflarning sifatlari” deb atalmish boblarga asos soldilar. Zamonimizga yaqin o’tmishda, Qur’on o’qishlikda ko’p kuzatilayotgan “Vaqf” va “Ibtido” ilmiga oid xatolarni isloh etish uchun mus’haflardagi uzun oyatlarda to’xtash mumkin bo’lgan yoki mumkin bo’lmagan o’rirlarni qur’on o’quvchisiga bildirib turuvchi alomatlar qo’yila boshlandi. Ta’kidlash lozimki, Nazariy tajvid qoidalari bir vaqtida ishlab chiqilmagan, balki bir necha davrlarda Qiroat ulamolari tomonidan ishlab chiqilib, mukammalashib kelgan.

Hulosa qiladigan bo’lsak, amaliy tajvid payg’ambar (alayhissalom) davrlarida yuzaga keldi. Uning asoschisi bevosita Muhammad (alayhissalom)ning o’zlari edilar. Arab tilini bilmaydigan Ajam xalqlar ham islomni qabul qilib, Qur’on o’qishni boshlaganlarida Nazariy tajvidga ilmiga ehtiyoj paydo bo’ldi. Shu tariqa nazariy tajvid ilmi shakllanib, bosqichma-bosqich rivojlandi.

Nazariy tajvid ilmining shakllanishida va rivojlanishida xizmat qilgan olimlardan mashxurlari Abul Asvat Ad-Duvaliy, Nasr ibn Osim, Yahyo ibn Ya’mur, Halil ibn Ahmad Al-Farohidiy, Sibavayh, Shotibiy, Jazariylardir (rohimahumulloh).

Tajvid ilmiga oid bir qancha manbalar mavjud. Jumladan: Sheriy nazmda bitilgan Imom Jazariyning “Manzumatul Muqoddima”, Sulaymon Jamzuriyning “Tuhfatul Atfal” asarlari, “zamonamiz Jazariysi” deya nom olgan Dr. Ayman Suvayd Rushdiyning “Manzumatul Muqoddima” asariga yozgan sharhlari ham mashxurdir. Aynan mana shu asar Imom Buxoriy nomidagi “Islom” institutining “Tahfizul Qur’on” kafedrasи mudiri Jahongir qori Ne’matov tomonidan o’zbek tiliga tarjima qilinib, “Tartil asoslari” nomi ostida chop etildi. Bundan tashqari bugungi kunda o’zbek olimlarining ham bu sohaga oid bir qancha risolalari nashr etilgan. Ulardan “Oson tajvid”, “Mukammal tajvid”, “Mufassal tajvid”, “Tartil”, “Qur’on qiroati va tajvid ilmi” kabi asarlarni misol keltirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Qur’on ilmlari”, “Hilol-Nashr” nashriyoti, Toshkent-2021;
2. Jahongir qorri Ne’matov “Tartil asoslari”, “G’afur G’ulom” nomidagi nashriyot matbaasi ijodiy uyi, Toshkent-2018;
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, “Islom tarixi birinchi kitob” “Hilol-Nashr” nashriyoti, Toshkent-2022;
4. Jahingir Ubaydulloh, “Qiroat va tajvid”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent-2020;